



Buxoro davlat tibbiyot
instituti gazetasi

Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'lur,
Qudratli yurtning farzandlari sog'lom bo'lur

Fevral
2026-yil

Ibn Sino Vorislari

BUXORODA XALQARO TALABALAR FORUMI BO'LIB O'TMOQDA



Ayni kunlarda Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutida "Morfologiya va jarrohlik" mavzusida talabalar va yosh olimlarning xalqaro forumi bo'lib o'tmoqda.

O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining ishtirokchilarga tabrigini Toshkent davlat tibbiyot universiteti kafedra mudiri, professor Murod Hakimov o'qib eshittirdi.

Institut rektori ishtirokchilarni qutlab, hamkor oliy ta'lim muassasa rektorlariga minnatdorchilik tashakkurnomalarini topshirdi.

Ochilish marosimida yurtimizning 10 dan ortiq oliy ta'lim muassasalari vakillari hamda qo'shni davlatlar – Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistondan nufuzli universitet jamoalari ishtirok etmoqda. **2**

Buxoroda xalqaro
talabalar forumi
bo'lib o'tmoqda

2

Institutga professor
Saydimurod
Ismoilov tashrif
buyurdi

4

"BIMO-2026" va
"BICHO-2026" xalqaro
olimpiadalari g'oliblari
taqdirlandi

5

BUXORODA XALQARO TALABALAR FORUMI BO`LIB O`TMOQDA

«1» Tadbir doirasida bo'lajak tibbiyot xodimlarining amaliy bilim va ko'nikmalarini sinovdan o'tkazish maqsadida xalqaro olimpiada, sohadagi so'nggi yutuqlar muhokamasiga bag'ishlangan konferensiya va ilmiy-amaliy seminarlar tashkil etilmoqda.

Shuningdek, xirurgiya sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar va talabalarga o'zaro bilim va tajriba almashish imkoniyati yaratilib, amaliyotda qo'llanilayotgan innovatsion usullar, jarrohlikning ilmiy rivojlanish yo'nalishlari va ilg'or tadqiqotlar taqdim etiladi.

Mazkur forum doirasida tibbiyotning turli yo'nalishlari bo'yicha fan olimpiadasi ham tashkil etilmoqda. Olimpiada quyidagi bosqich va yo'nalishlarda o'tkazilmoqda:

- Akusherlik va ginekologiyada nazariya (II etap)
- Neyroxirurgiyada nazariya (I etap)
- Yurak-qon tomir jarrohligida nazariya (II etap)

- * Endoskopiyada nazariya (II etap)
- * Kattalar kardioxirurgiyasi: AKSh (III etap)
- * Abdominal jarrohlik I etap
- * Abdominal jarrohlik II etap
- *Funksional–dilatatsion traxeostomiya va Grigz usuli (IV etap)

Unda mamlakatimiz hamda qo'shni respublikalardagi tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlari ishtirok etmoqda.

Ishtirokchi talabalar birinchi bosqich — nazariy imtihonlarda test sinovlari orqali bilimlarini namoyon etmoqda. Ikkinchi, amaliy bosqichda esa jarrohlik ko'nikmalarini ko'rsatish maqsadida hayvonlarda jarrohlik amaliyotlarini bajarmoqdalar.

Mazkur olimpiada talabalarning nazariy bilim va amaliy mahoratini baholash, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish hamda xalqaro tajriba almashishga xizmat qilmoqda.

Eslatib o'tamiz forum 22-fevralga qadar davom etadi.

BIZNING FAXRIMIZ!

iqtidorli talabalarimiz nomdor va davlat stipendiyalari sohibi bo'lishdi

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutida tahsil olayotgan iqtidorli talabalar o'z bilimlari, ilmiy izlanishlari va faolligi bilan yuksak natijalarga erishmoqda.

2025–2026-o'quv yili yakunlariga ko'ra institutning Tibbiyot fakulteti talabalari Prezident stipendiyasi, Islom Karimov nomli davlat stipendiyasi hamda Ibn Sino nomli davlat stipendiyasi sovrindorlari sifatida e'tirof etildi.



**O'ROQOVA KAMOLA
HAMIDOVNA** —

Tibbiyot fakulteti
618-guruh talabasi,
Prezident stipendiyasi
sohibasi.
Ilmiy rahbar: Patologik
fiziologiya kafedrasini mudiri,
professor *Abdullayeva
Muslima Ahatovna*.



**SHODMONOVA
XUMORA SIROJIDDIN
QIZI** —

Tibbiyot fakulteti 517-guruh
talabasi, Islom Karimov nomli
davlat stipendiyasi sohibasi.
Ilmiy rahbar: Patologik
fiziologiya kafedrasini mudiri,
professor *Abdullayeva
Muslima Ahatovna*.



**USMONOV AMIRBEK
USMONOVICH** —

Tibbiyot fakulteti 519-guruh
talabasi, Ibn Sino nomli
davlat stipendiyasi sohibi.
Ilmiy rahbar: "Fakultet va
gospital xirurgiya" kafedrasini
professori, tibbiyot fanlari
doktori *Davlatov Salim
Sulaymonovich*.



**TOJIYEVA GULASAL
NODIRJON QIZI** —

Tibbiyot fakulteti 613-guruh
talabasi, Ibn Sino nomli
davlat stipendiyasi sohibasi.
Ilmiy rahbar: "Yuqumli
kasalliklar va bolalar yuqumli
kasalliklari" kafedrasini katta
o'qituvchisi, PhD *Farmanova
Maxtob Alimovna*.

Mazkur yutuqlar institutda ta'lim sifati, ilmiy salohiyat va iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli ishlarning samarali natijasidir. Buxoro

davlat tibbiyot instituti jamoasi stipendiya sohiblarini ushbu yuksak yutuqlari bilan qutlab, kelgusidagi ilmiy va kasbiy faoliyatlarida ulkan muvaffaqiyatlar tilaydi.



Buxoro davlat tibbiyot institutining Turkiya bilan HAMKORLIGI YANGI BOSQICHGA CHIQMOQDA

Buxoro davlat tibbiyot institutida Turkiya bilan yo'lga qo'yilgan hamkorlik aloqalari yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Institutga tashrif buyurgan turkiyalik mutaxassislar — Prof. Dr. Nihan Kayalar, Prof. Dr. Ali Ümit Yener, shuningdek, anesteziologiya va reanimatsiya yo'nalishidagi Doç. Dr. Ceyda Özhan Çaparlar va Doç. Dr. İlkey Baran Akkuş institut klinikasida bir hafta davomida amaliy jarayonlarda ishtirok etib, talabalar bilan bevosita muloqot olib bordi.

Shuhrat Teshayev hamda institut klinikasi bosh vrachi Shermuhammad Tursunov xorijiy mutaxassislar bilan

uchrashuv chog'ida kelgusidagi hamkorlik rejaları yuzasidan muzokaralar olib bordi. Unda qo'shma amaliy mashg'ulotlar, tajriba almashinuvi va akademik aloqalarni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Qayd etilishicha, institutning Turkiya bilan hamkorligi doimiy va tizimli tus olmoqda. Kelgusida talabalar hamda professor-o'qituvchilar muntazam ravishda ushbu davlatning nufuzli tibbiyot va ta'lim muassasalarida amaliyot va malaka oshirish dasturlarida ishtirok etishi rejalashtirilgan. Mazkur hamkorlik zamonaviy tibbiy ta'limni rivojlantirish, klinik tajribani boyitish va xalqaro standartlarni joriy etishga xizmat qilmoqda.

Nigina SAVRIYEVA



"OLY TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM SIFATI, AKKREDITATSIYA VA REYTING MASALALARI" MAVZUSIDA AMALIY UCHRASHUV

Kuni kecha Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi tomonidan oliy ta'lim tashkilotlarini davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish hamda ularning milliy reytingini tuzish jarayonlariga bag'ishlangan amaliy uchrashuv tashkil etildi.

Uchrashuvda oliygohlarning milliy reytingi qanday mezon va indikatorlar asosida shakllantirilishi va hozirda talaba va professor-o'qituvchilar orasida o'tkazilayotgan "Umummilliy so'rovnoma" natijalari muhokama qilindi.

Shuningdek, tadbirda davlat akkreditatsiyasi talablari bo'yicha yig'ilganlar bilan fikr almashilib, agentlik mutaxassislari bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot davom ettirildi.

Institut matbuot xizmati

INSTITUTGA PROFESSOR SAYDIMUROD ISMOILOV TASHRIF BUYURDI

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutiga Akademik V. Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy jarrohlik tibbiyot markazi direktori, professor Saydimurod Ismoilov tashrif buyurdi.



Mazkur tashrif doirasida institutga tibbiyot sohasidagi nufuzli mutaxassislar ham kelib, ta'lim va amaliy tibbiyotni rivojlantirish, ilg'or tajribalarni joriy etish masalalari yuzasidan atroficha muhokamalar olib borildi. Tashrif davomida mehmonlarga institut rektori, professor Shuhrat Teshayev hamrohlik qildi.

Muloqot chog'ida markaz hamda Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti o'rtasida hamkorlik to'g'risida ikki tomonlama memorandum imzolandi. Kelishuv asosida transplantologiya yo'nalishida institut klinikasida doimiy ravishda murakkab jarrohlik amaliyotlarini amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Bu esa talabalar, ordinatorlar va amaliy shifokorlar uchun kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, mehmonlar institut muzeyi, smart issiqxona hamda simulyatsiya markazlari faoliyati bilan yaqindan tanishdilar.

Mazkur memorandum ta'lim, fan va akademik mobillik sohaslarida o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, uning doirasida akademik mobillik, ilmiy stajirovkalar,



qo'shma ilmiy tadqiqotlar va nashrlar, shuningdek, ilmiy-amaliy, ta'limiy hamda madaniy tadbirlarni birgalikda tashkil etish nazarda tutilgan.

Shu bilan birga, kelishuv professor-o'qituvchilar va mutaxassislar almashinuvi, ta'lim va ilmiy faoliyatga oid axborotlar, materiallar hamda ilmiy nashrlar bilan o'zaro tajriba almashishni ham qamrab oladi.

Ushbu hamkorlik tomonlar o'rtasida o'zaro manfaatli loyihalarni amalga oshirish, sog'liqni saqlash va tibbiyot ta'limi sohasida ilg'or tajribalarni joriy etishga xizmat qiladi.

Madina SAIDOVA



O'zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi Immunologiya va inson genomikasi instituti direktori, akademik Tamara Oripova Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutiga tashrif buyurdi.

Immunologiya va inson genomikasi instituti direktori Buxoro davlat TIBBIYOT INSTITUTIDA

Mehmonni institut rektori, professor Shuhrat Teshayev kutib oldi hamda oliygoh muzeyi, axborot-resurs markazi, smart issiqxona va o'quv xonalari faoliyati bilan yaqindan tanishtirdi.

Tashrif davomida ta'lim va fan sohaslarida hamkorlikni rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish hamda ilg'or tajribalarni amaliyotga joriy etish masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Institut matbuot xizmati





Buxoroda Respublika ko'rik-tanlovlari g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi

Buxoro davlat universitetida respublika miqyosida o'tkazilgan ko'rik-tanlovlari g'oliblarini taqdirlash marosimi tashkil etildi.

Marosimni Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi rahbari Akramov Abdumalik Abdumutalovich ochib berdi. U o'z nutqida ushbu nufuzli tadbirning aynan Buxoro viloyatida, Buxoro davlat universitetida o'tkazilayotgani bejiz emasligini, mazkur oliy ta'lim muassasasi mamlakatda ma'naviy-ma'rifiy ishlar, milliy g'oya targ'iboti va yoshlar faolligini oshirish borasida yetakchi maskanlardan biri ekanini ta'kidladi. Shuningdek, tadbirni yuqori saviyada tashkil etishda hamkorlik qilgan barcha tashkilot va jamoalarga minnatdorlik bildirdi hamda g'olib va sovrindorlarga kelgusidagi faoliyatida muvaffaqiyatlar tiladi.

Tadbir davomida Markaz tomonidan o'tkazilgan respublika tanlovlarida faol ishtirok etgan tashabbuskorlar e'tirof etildi. Jumladan, "Eng faol milliy g'oya va ma'naviyat targ'ibotchisi", "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha eng yaxshi kafedra", "Eng yaxshi tyutor", "Eng faol xotin-qizlar maslahat kengashi

raisi", "Eng faol islohotlar targ'ibotchisi" tanlovlari g'olib va sovrindorlari vazirlik diplom va sertifikatlari bilan taqdirlandi.

Tanlov doirasida Buxoro davlat tibbiyot instituti jamoasi ham munosib ishtirok etdi. Xususan, institut rektori Shuhrat Teshayev hamda yoshlar bilan ishlash va ma'naviyat ishlari bo'yicha birinchi prorektor Zubayda Bahranova O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining tashakkurnomasi bilan taqdirlandi.

Shuningdek, "Eng faol milliy g'oya va ma'naviyat targ'ibotchisi"

republika tanlovida 2-o'rin sohibasi — Feruza Toirova, "Eng yaxshi tyutor" tanlovida 3-o'rin sohibasi — Saidaxon Xodjayeva e'tirof etildi. Bundan tashqari, stomatologiya fakultetining uchinchi kurs talabalari jamoasi "Mening O'zbekistonim" videoroliklar tanlovida 3-o'rinni qo'lga kiritdi.



"BIMO-2026" va "BICHO-2026" xalqaro olimpiadalari g'oliblari TAQDIRLANDI



Bugun Buxoro davlat universitetida nufuzli "BIMO-2026" va "BICHO-2026" xalqaro olimpiadalarida yuqori natijalarga erishgan iqtidorli yoshlar va ularning ustozlarini sharaflashga bag'ishlangan tantanali taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Mazkur tadbir ilm-fan va intellektual salohiyatni rivojlantirish yo'lida qo'lga kiritilgan yutuqlarni e'tirof etish, yoshlarni yangi marralar sari ruhlanitirishga xizmat qildi.

Tadbirda Buxoro davlat tibbiyot instituti rektori Shuhrat Teshayev ishtirok etib, xalqaro olimpiada g'olibi bo'lgan talabalarni erishilgan yutuqlari bilan muborakbod etdi hamda ularni taqdirlash marosimida qatnashdi.

Marosim davomida yoshlarning xalqaro maydondagi muvaffaqiyatlari mamlakatimiz ta'limi va ilm-fani rivojida muhim ahamiyat kasb etishi alohida ta'kidlandi.

Nafas a'zolari kasalliklarida balg'amni TEKSHIRISHNING AHAMIYATI

Aholi orasida kasallanish ko'rsatkichlari bo'yicha nafas olish a'zolari kasalliklari yuqori o'rinlardan birini egallaydi. Bolalar orasidagi kasalliklar ichida esa ikkinchi o'rinni egallaydi.

Nafas yo'llari kasalliklarida nafas a'zolari shilliq pardasidan ajraladigan ajralma balg'am hisoblanadi. Sog'lom bolalarda odatda balg'am ajralmaydi. Balg'am tarkibini tekshirish o'pka va nafas yo'llaridagi yallig'lanish jarayonlari hamda uning tabiatini aniqlashda muhim diagnostik ahamiyatga ega.

Balg'amni klinik-laborator tahlil qilish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- * balg'am miqdorini o'lchash;
- * fizik va kimyoviy tekshirish;
- * mikroskopik tahlil;
- * bakterioskopik va sitologik tekshirishlar.

Bizning markazimizda bakterioskopik laboratoriya tashkil etilgan bo'lib, balg'am asosan bakterioskopik usulda tekshiriladi.

Kasalxonada yotgan bolalardan balg'am bo'lim hamshirasi tomonidan gigiyena qoidalariga qat'iy rioya qilingan holda yig'ib olinadi. Yig'ilgan balg'am steril idishda bakteriologik laboratoriyaga yetkaziladi.

Balg'amni ko'z bilan ko'rish orqali uning ayrim xususiyatlari aniqlanadi:

rangi;
konsistensiyasi.
Sifatli tahlil o'tkazish uchun kamida 5 ml balg'am to'planishi kerak. Yo'tal bilan ajralib chiqqan balg'amni yig'ish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



Balg'am namunalari odatda infeksiyalarni aniqlash uchun tekshiriladi. Bunda balg'am florasi va antibiotiklarga sezgirligi o'rganiladi.

Balg'amni bakterioskopik tekshirish uchun ikkita preparat tayyorlanadi:

- * Sil mikobakteriyalarini aniqlash uchun;
- * Boshqa bakteriyalarni aniqlash uchun.

Tayyorlangan preparatlar maxsus bo'yoqlar bilan bo'yilib, tekshirish uchun vrach-laborantga taqdim etiladi va shundan keyin tegishli natijalar beriladi.

Inson o'z sog'ligini asrab-avaylashi va uni ehtiyot qilishi juda muhim. Kasalliklarning oldini olish, zararli odatlardan voz kechish, kashandalikka qarshi kurashish, sog'lom va to'g'ri ovqatlanish hamda jismoniy faollikni oshirish sog'lom hayot garovidir.

Yulduz AZIMOVA
Viloyat Bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi laboratoriya bo'limi laboranti

TALABALARIMIZ "MEN DONORMAN" QON TOPSHIRISH AKSIYASIDA QATNASHDILAR

BuxDTI talabalari va professor-o'qituvchilar viloyat qon quyish markazida tashkil etilgan "Men donorman" donorlik aksiyasi doirasida qon topshirish ishlarida faol ishtirok etdi.

Ixtiyoriy ravishda qon topshirishga kelgan o'qituvchi va talaba ko'rigidan o'tganlaridan so'ng tegishli tartibda qon topshirdilar. topshirilgan qon preparatlari onkologiya va gematologiya davolanayotgan bolalar uchun yuborilishi belgilangan.

Ta'kidlash joizki, bugungi aksiyada ishtirok etish uchun kelgan yoshlar ko'ngilli qon topshirish ishlariga nihoyatda faollik va xayrixohlik bilan yondashdilar.

O'ziga xos insonparvarlik namunasi bo'lgan bu kabi tadbirlar zahirida bemorlar hayotini saqlab qolishdek ulkan va xayrli ish turibdi. Shu bois, unda ishtirok etgan har bir inson mazkur xayrli ishga daxldordir.

Bo'lajak shifokorlar bemorlarga har jihatdan yordam berishni o'zlarining burchi deb hisoblashmoqda.





Kuni kecha Xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashi deputati hamda Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti rektori Shuhrat Teshayev ishtirokida aholi uchun navbatdagi sayyor qabul va bepul tibbiy ko'rik tadbiri tashkil etildi.

Institut klinikasida aholi uchun sayyor qabul va bepul tibbiy ko'rik tashkil etildi

Mazkur tadbir institut klinikasida o'tkazilib, unda shaharning 30 nafarga yaqin aholisi ishtirok etdi. Sayyor qabul davomida fuqarolar ijtimoiy masalalar, tibbiy xizmat sifati, davolanish jarayonlari hamda sog'liqni saqlash tizimiga oid o'zlarini qiynab kelayotgan muammolar yuzasidan murojaat qildilar.

Har bir murojaat mas'ullar tomonidan alohida ko'rib chiqilib, qonunchilik doirasida batafsil tushuntirishlar berildi

hamda zarur hollarda amaliy yordamlar ko'rsatildi. Shuningdek, ishtirokchilar bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, sog'liq holati yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi.

Tadbir aholi bilan ochiq muloqotni mustahkamlash, tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash hamda fuqarolarning muammolarini joyida hal etishga xizmat qildi.

Institut matbuot xizmati



Shofirkonda 12 nafar fuqaroning MUROJAATI ATROFLICHA O'RGANILDI

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti rahbariyati Shofirkon tumanida aholi uchun sayyor qabul o'tkazdi.

Sayyor qabul Shofirkon tuman tibbiy birlashmasiga qarashli "Qal'ai Mir Arab" oilaviy shifokorlik punktida tashkil etildi. Unda 12 nafar fuqaro ijtimoiy masalalar, sog'liq bilan bog'liq muammolar, shuningdek, turli taklif va fikr-mulohazalar bilan murojaat qildi. Har bir murojaat atroflicha o'rganilib, mavjud masalalar yuzasidan tegishli tushuntirish va amaliy tavsiyalar berildi.

Shuningdek, tadbir doirasida Abu Ali ibn Sino nomidagi

Buxoro davlat tibbiyot instituti klinikasining malakali shifokorlari tomonidan aholi uchun bepul tibbiy ko'rik tashkil etildi. Fuqarolar mutaxassislar ko'rigidan o'tkazilib, sog'liq holati bo'yicha dastlabki tashxislar qo'yildi hamda zarur tavsiyalar berildi. Ayrim murojaatchilarga qo'shimcha tekshiruv va davolanish uchun tegishli yo'llanmalar rasmiylashtirildi.

Mazkur sayyor qabul aholi bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yish, sog'liqni saqlash sohasidagi muammolarni joyida hal etish hamda fuqarolarning taklif va murojaatlariga tezkor munosabat bildirishda ayni muddao bo'ldi.

Feruz TOIROVA

AGAR farzandingiz...

Psixolog Toriq Habib farzand tarbiyasidagi muammolar yechimi haqida shunday deydi:

Farzandingiz o'ziga ishonmayaptimi? Demak, siz uni ruhlantirmas ekansiz!

Farzandingiz yolg'on gapiryaptimi? Demak, siz uni qattiq nazorat ostiga olgansiz!

Farzandingiz sizni bezovta qilib, tinchingizni buzyaptimi? Demak, siz uni bag'ringizga bosib, yuzlaridan o'pmas ekansiz!

Farzandingiz sizni bezovta qilib, tinchingizni buzyaptimi? Demak, siz uni bag'ringizga bosib, yuzlaridan o'pmas ekansiz!

Farzandingiz doim qovog'i osilganmi? Demak, siz uni maqtamas ekansiz!

Farzandingiz yaxshi gapira olmayaptimi? Demak, siz u bilan suhbatlashmas ekansiz!

Farzandingiz sizga bo'ysunmayaptimi? Demak, siz undan ko'p narsa talab qilar ekansiz!

Farzandingiz boshqalarni hurmat qilmayaptimi? Demak, siz uning yonida ovozingizni pasaytirmas ekansiz!

Farzandingiz qizg'anchiqmi? Demak, siz u bilan o'zaro hamkorlik qilmas ekansiz!

Farzandingiz zaifmi? Demak, siz unga ko'p do'q-po'pisa qilar ekansiz!

Farzandingiz boshqalarga nisbatan tajovuz qilyaptimi? Demak, siz unga nisbatan qo'pol munosabatda bo'larkansiz!

Farzandingiz sizni qizg'anyaptimi? Demak, siz unga nisbatan bee'tibor ekansiz!

Farzandingiz qo'rqqomi? Demak, siz uni ko'p himoya qilarkansiz!



Internet manbalari asosida tayyorlandi



MUASSIS:

Abu Ali ibn Sino
nomidagi
BUXORO DAVLAT
TIBBIYOT INSTITUTI

Muharrir:
Behzod ADIZOV

Mas'ul kotib:
**Umiddjon
HAKIMOV**

Elektron manzil:
bsmiuz@umail.uz

**TAHRIRIYAT
MANZILI:**

705018.
Buxoro shahri,
G'ijduvon ko'chasi 23-uy.
Telefon: 223-40-45

Sahifalovchi:
**Kamola
SULAYMONOVA**

Gazeta viloyat matbuot va axborot
boshqarmasi tomonidan 2007 yil 16 yanvarda
27-tartib raqami bilan ro'yxatga olingan.

Guvohnoma raqami: 05-027
Gazeta viloyat bosmaxonasida
500 nusxada chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:
19.02.2025 yil. soat 16:30
Buyurtma 1478